

**OILADA FARZAND TARBIYASI: PSIXOLOGIK YONDASHUV
VA USULLAR**

Mengnarova Ulug'oy Usanovna

Surxondaryo viloyati Sho'rchi tumani 34-maktab amaliyotchi psixologi

Annotatsiya: Ushbu maqolada oilada farzand tarbiyasining psixologik asoslari, zamonaviy yondashuvlar hamda ota-onalarning tarbiya jarayonidagi o'rni yoritilgan. Shuningdek, bolani sog'lom ruhda tarbiyalashda muhim omillar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: oila, farzand, tarbiya, psixologiya, ota-ona, muloqot, rivojlanish, mehr, muhit, xulq-atvor.

KIRISH

Oila — farzand tarbiyasining eng birinchi va eng muhim muhitidir. Bola dunyoni avvalo oilada tanib boshlaydi, uning xarakteri, odob-axloqi va hayotga bo'lgan munosabati aynan oilada shakllanadi. Shu sababli ota-onaning tarbiya jarayonidagi roli beqiyosdir. Farzand tarbiyasida eng muhim omillardan biri — bu mehr va e'tibordir. Bola o'zini sevilgan va qadrlangan his qilsa, u ruhiy jihatdan barqaror va o'ziga ishonchli bo'lib ulg'ayadi. Aksincha, e'tibor yetishmasligi turli psixologik muammolarga olib kelishi mumkin. Muloqot ham tarbiyaning asosiy vositasidir. Ota-ona farzandi bilan ochiq va samimiy suhbat qurishi, uning fikrini tinglashi zarur. Bu bola va ota-ona o'rtasidagi ishonchni mustahkamlaydi.

Tarbiya jarayonida me'yor muhimdir. Haddan tashqari qattiqqo'llik bolada qo'rquv va ishonchsizlikni, ortiqcha erkinlik esa intizomsizlikni keltirib chiqaradi. Shu sababli muvozanatni saqlash zarur. Farzandni rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash uning rivojlanishida katta ahamiyatga ega. Kichik yutuqlarini ham e'tirof etish bola motivatsiyasini oshiradi. Shuningdek, ota-onaning o'zi ham farzand uchun namuna bo'lishi kerak. Bola ko'proq eshitganidan ko'ra ko'rganini takrorlaydi.

Zamonaviy davrda texnologiyalar ta'siri ham tarbiya jarayoniga o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Shu sababli ota-onalar bolalarning telefon va internetdan foydalanishini nazorat qilishi zarur. Farzandning bo'sh vaqtini to'g'ri tashkil etish ham muhimdir. Sport, kitob o'qish va ijodiy mashg'ulotlar bolaning har tomonlama rivojlanishiga yordam beradi. Oila va maktab hamkorligi tarbiyaning samaradorligini oshiradi. Ota-onalar o'qituvchilar bilan doimiy aloqada bo'lishi farzand rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Ma'lumki, oila har bir jamiyatning boshlang'ich hujayrasi hisoblanadi. Oila mustahkam, tinch, halol va pok bo'lsa, jamiyat ham osoyishta, mustahkam, farovon bo'ladi. Aksincha, oilalarda parokandalik, buzg'unchilik bo'lsa, halol-haromning farqi qolmasa, o'sha jamiyat buziladi, tinchi yo'qoladi, oxir-oqibat u chuqur tanazzulga yuz tutadi. Shuning uchun ham qadimdan har bir jamiyat oila masalasiga katta e'tibor berib, oilalarning mustahkam va baxtiyor bo'lishi uchun imkonida bor bo'lgan barcha chora va tadbirlarni ko'rib kelgan. Zotan, sof insoniy tabiat xuddi shunday bo'lishini taqozo qiladi.^[1] Farzand tarbiyasining uchinchi bosqichida farzand dunyoga kelgan kundan boshlab beriladigan tarbiya "parvarish davri" ham deyiladi. Bolani parvarish qilish uchun yosh onaga tajribali doya-hamshira 1-2 oy davomida yordam berib turishi ma'qul bo'ladi. Ona farzandini oziqlantirishda ozodalik qoidalariga amal qilishi, bolani poklikka birinchi kundanoq o'rgatishi lozim.

Azaldan bola yoshligidan oila a'zolari tomonidan ilm va hunarga o'rgatib borilgan, shu tariqa uning jismoniy va ruhiy kamoloti oilada shakllangan. Bu xususda Kaykovus "Qobusnoma" asarida ham to'xtalib o'tadi: "Ey farzand, agar farzanding bo'lsa, anga yaxshi ot qo'ygil, nedinkim, otada farzand haqlaridan biri, unga yaxshi ot qo'ymoqdir. Yana biri uldurkim, farzandni oqil va mehribon doyalarga topshurg'aysan. Sunnat qilur vaqtida sunnat qilg'aysan, qudratingga loyiq to'y va tamosha qilg'aysan hamda o'qishni o'rgatg'aysan. Ulug'roq bo'lg'ondan so'ng, agar raiyat bo'lsang, unga hunar va kasb o'rgatg'aysan". Farzandni tarbiya qilganda, uning yoshi va saviyasini inobatga olish muhim. Ikki yoshgacha mutaxassislarining ta'kidlashicha, onalar bu davrda bola parvarishida quyidagi

tavsiyalarga amal qilsalar foydadan holi bo'lmaydi:

Ikki yoshgacha bo'lgan davrda mutaxassislar onalarga quyidagi tavsiyalarga amal qilishni tavsiya etadilar:

- bolaga mehr va e'tiborni ko'proq berish, uni tez-tez quchoqlash va yaqinlik hissini uyg'otish;
- bola bilan doimiy muloqotda bo'lish, gaplashish, ertak aytib berish va ovoqli o'yinlar o'ynash;
- kun tartibini to'g'ri yo'lga qo'yish (uyqu, ovqatlanish va o'yin vaqtlari);
- bolaning jismoniy rivojlanishini qo'llab-quvvatlash (harakatli o'yinlar, emaklash, yurishga o'rgatish);
- to'g'ri va muvozanatli ovqatlantirishga e'tibor berish;
- bolaning xavfsizligini ta'minlash, xavfli buyumlardan himoya qilish;
- bolaning qiziqishlarini kuzatish va rivojlantirish;
- uni haddan tashqari koyimaslik, sabr bilan yondashish;
- bolaning gigiyenasiga rioya qilish;
- ijobiy muhit yaratish, janjal va stressli vaziyatlardan asrash.

Bu davrda bola uchun eng muhim narsa — mehr, xavfsizlik va doimiy e'tibordir, chunki aynan shu omillar uning sog'lom jismoniy va ruhiy rivojlanishiga asos bo'ladi.

Besh yoshgacha farzand atrofni kuzatadi, aksariyat ma'lumotni shu davrda oladi. Bu davrda ota-ona amaliy tomondan bolaga namuna bo'lishlari, oilada sog'lom ma'naviy muhitni shakllantirishlari talab etiladi. Bolaga yoshligidan kitobga bo'lgan qiziqishlarini oshirish, ayniqsa, o'zbek xalq ertaklarini o'qib berish, 3-4 yoshga kirganda o'qib berilgan ertakni tushunganini o'zidan so'rash lozim. Keyin o'qib berilgan ertaklar bo'yicha bolaga oddiy savollar berish va uning javob berishiga shoshiltirmaslik kerak. Bolani savolga bergan har bir javobi uchun maqtab, rag'batlantirib turish olgan tushunchalarining xotirasida doimiy muhrlanib qolishga katta imkoniyat beradi. Shuningdek, maktabgacha yosh davri sensor jarayonlarni rivojlantirish davri sanaladi. Sensor tarbiya bolalarda hissiy bilish qobiliyatlarini shakllantirishga sezgi va idrokni takomillashtirishga qaratilgan

pedagogik jarayondir.

“Sensor” so‘zi lotincha so‘zdan olingan bo‘lib “sensus” – “tuyg‘u”, “sezgi”, “idrok”, “sezish qobiliyati” ma‘nolarini anglatadi. Demak, borliqni bilish avvalo, sezish, idrok qilishdan boshlanadi. Inson ko‘rish, sezish, anglash, his qilish yordamida tevarak-atrofdagi narsa va hodisalar to‘g‘risida bilimga ega bo‘ladi. Bolalarning sensor madaniyati, unda sezgi va idrokning muvaffaqiyati uchun muhim shart-sharoit hisoblanadi. Bolalarning aqliy, estetik, jismoniy va mehnat tarbiyasini shakllanishida sensor tarbiya muhim o‘rin tutadi.

O‘n yoshgacha bolalar muvozanatli hayotni tez idrok etuvchi, ishonuvchan, ota-onalariga itoatli, tashqi qiyofa haqida ko‘p e‘tiborsiz bo‘lganligi bois bu oltin yosh hisoblanadi. Bu davrda esa me‘yorida qattiqqo‘llik va intizom talab etiladi. Bola oqqorani, yaxshi-yomonni ayni shu davrda farqiga bora boshlaydi. Bu davrda farzandga to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatilishi, yaxshi, sadoqatli do‘stlarga hamroh qilinishi bola biz ko‘zlagan barcha talablarga javob beradigan odobli, yaxshi inson bo‘ladi.

O‘n besh yoshgacha bolalar tafakkurida mustaqil fikrlash boshlanadi, o‘zim bilaman degan tushuncha paydo bo‘ladi, organizmida fiziologik o‘zgarishlar yuz beradi, xulq-atvorida qaysidir ma‘noda salbiy illatlar namoyon bo‘la boshlaydi, kayfiyati tez o‘zgaradi, ota-onalariga nisbatan norozilik bildiruvchi, tez jazavaga tushuvchi va o‘z o‘rnida dunyoga nisbatan ijobiy munosabat shakllanadi. Ularda did, farosat, o‘zini jamoa orasida tutish, aqllilik, hazil-mutoyibaga moyillik, chidamlilik, tashabbuskorlik, tashqi qiyofa va qarama-qarshi jinsdagilarga e‘tibori orta boshlaydi.

O‘smir o‘zining ichki dunyosiga e‘tiborliligi ortadi, tanqidlarga nisbatan ta’sirlanuvchan, ota-onasiga “Sizning dunyoqarashingiz boshqacha, unday emas, bunday bo‘ladi”, – degan tanqidiy munosabatlar bildiruvchi hamda do‘st tanlovchi bo‘ladi. Shuningdek, bu davrda voqea-hodisalardan o‘ta darajada to‘lqinlanish va hayajonlanishi ortadi. Shijoatli, xushmuomala, o‘ziga ishonchi ortadi, atrofdagi insonlarga e‘tibori ortadi va nisbiy farqni ajrata boshlaydi.

O‘n sakkiz yoshgacha o‘spirinlik ularda muvozanatlashuv, hayotdan quvonish, ichki mustaqillik, emotsional barqarorlik, muomalaga moyillik, kelajakka

intiluvchanlik ortadi. Bu davrda farzand do'stimiz, suhbatdoshimiz, ta'bir joiz bo'lsa sirdoshimiz bo'lishi kerak. Bola ota-onadan tortinmasligi, balki do'sti sifatida yaqinlashmog'i lozim. Kelajak avlod yetuk va komil inson bo'lib shakllanishi uchun kitob mutolaasi uchun hamda zamonaviy axborot texnologiyalarini o'rganishi uchun barcha zarur shart-sharoitlarni tashkil qilish, ota-ona bolada estetik tarbiya, go'zal manzaralardan zavq olish hissini shakllantirish uchun tabiatdagi manzarali joylarga, muzeylarga olib borishi orqali qalbiga go'zallik his-tuyg'usini singdirishi muhimdir.

Farzand tarbiyasida oilaviy muhitning psixologik ta'siri nihoyatda kuchli bo'lib, u shaxsning butun umriga ta'sir ko'rsatadi. Mehrli, e'tiborli, samimiy va barqaror oilaviy muhit farzandning barkamol shaxs bo'lib yetishishiga zamin yaratadi. Shu bois, har bir oila farzand tarbiyasini ongli, mas'uliyatli va ilmiy asosda tashkil etishi lozim. Pedagogik savodxonlik deganda ota-onaning farzand tarbiyasida qo'llaniladigan metod va uslublarni bilishi, o'sib kelayotgan avlodning yosh xususiyatlariga mos talablarga rioya qilishi tushuniladi. Masalan, kichik yoshdagi bolaga buyruq ohangida gapirish noto'g'ri, unga tushuntirish, amaliy ko'mak, rag'bat berish samaraliroq bo'ladi. Shuningdek, ota-ona bolaning ijobiy xatti-harakatlarini e'tirof etib, maqtash orqali unda o'ziga ishonch tuyg'usini shakllantiradi.

Farzand tarbiyasida psixologik yondashuv quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Bolaning emotsional holatini inobatga olish
- Uning shaxsiy hududi va fikrini hurmat qilish
- Konflikt holatlarni to'g'ri boshqarish
- Oila ichida sog'lom muloqot muhitini yaratish

Bola shaxsini kamolga yetkazish uchun oiladagi tarbiyaviy jarayonni pedagogik madaniyat asosida tashkil eta olish juda muhimdir. Ota-onalar bolalarga ularga qanday munosabatda bo'lishasuk va ularni qanday tarbiyalashsa, bu bolalarning o'zlarini qabul qilishlariga va boshqa insonlar bilan munosabatlariga ta'sir ko'rsatadi. Misol uchun, hissiy jihatdan qo'llab-quvvatlovchi oilalarda

tarbiyalangan bolalar ko'pincha o'ziga bo'lgan ishonchlarini rivojlantiradilar va ijtimoiy munosabatlarda faol bo'lishadi. Boshqa tomondan, oiladagi ziddiyatlar, stress va tasavvurlar bolalarda xavotir, tushkunlik va ijtimoiy izolyatsiyaga olib kelishi mumkin. Psixologik tenchlikka ega bo'lmagan oilalarda tarbiyalangan bolalar, ko'pincha o'z hissiyotlarini ifoda etishda qiyinchiliklarga duch keladilar. Sog'lom muloqot - to'g'ri tarbiyaning kalitidir.

Ota-ona sinchkov psixolog, nozik didli pedagog, bolaning kelajagini yaratuvchi bashoratgo'y bo'lishi lozim. Agar ota-ona boladagi iste'dod kurtaklarini o'z vaqtida sezib, ulaming rivojlanishiga sharoit yaratib bera olsa, bola shaxsining kamol topishiga katta yo'l ochadi. Ota-ona farzandi bilan ochiq, samimiy va teng huquqli muloqotda bo'lishi lozim. Bola o'z fikrini erkin ayta olishi, xatolari uchun kamsitilmasligi tarbiya muhitini ijobiy kuchaytiradi. Tarbiyaning har bir qismi tug'ilishdan yetti yoshgacha avval ota-ona zimmasiga tushadi. Sakkiz yoshdan yigirma yoshgacha maktab va madrasa zimmasiga, keyin umrining oxirigacha odamning o'z boshiga tushadi.

Demak, tarbiya jarayoni uzluksiz va bosqichma-bosqich kechadigan murakkab hayotiy maktabdir. Insonning tug'ilganidan yetti yoshgacha bo'lgan davrida uning ruhiy olami, xulqiy poydevori va hayotga ilk munosabati, avvalo, ota-onaning shaxsiy namunasida shakllanadi. Bu davrda oiladagi har bir so'z, har bir muhit, har bir muomala bola uchun hayotiy mezonga aylanadi. Sakkiz yoshdan yigirma yoshgacha bo'lgan yosh oralig'ida esa ta'lim muassasalari - maktab va boshqa tarbiyaviy tashkilotlar bolaning dunyoqarashini kengaytirish, ilmiy bilim va ijtimoiy tajribasini boyitishda muhim o'rin egallaydi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, oilada farzand tarbiyasi murakkab, ammo muhim jarayon bo'lib, unda mehr, sabr va to'g'ri yondashuv asosiy o'rin tutadi. To'g'ri tarbiya berilgan bola kelajakda barkamol shaxs bo'lib yetishadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI :

1. Abdulla Avloniy, Turkiy guliston yoxud axloq, T., 1992;
2. I. Alqarov, R.Mamatqulova, X.Norqulov. Shaxs va oilatarbiyasining pedagogiikasi. -T.: «Fan va texnologiya», 2009, 224 bet.
3. N. R. G'aybullayev va boshqa, Pedagogika, T., 1999.
4. Хайдаров, С. А. (2023). ТАРИХ ДАРСЛАРИДА САНЪАТ АСАРЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ УСУЛЛАРИ. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(1/2), 92-96.
5. Аслонов И. (2022) «Бобурнома» бадий – психологик тасвир муаммоси объекти сифатида. O'zMU xabarлари. Toshkent – 2022. №1/5.
6. Aslonov Ilhom Nizomovich. (2022) The Problem of Artistic - Psychological Image in Boburnoma. Eurasian Scientific Herald. Volume 7| April, 2022. ISSN: 27957365.
7. Ziyonet